

ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI\_PhD.03/30.12.2019.Fil.55.02  
RAQAMLI ILMIY KĚNGASH

---

ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

**XAJIBOYEV KISHIN ALISHER O'G'LI**

**ERKIN SAMANDARNING "DARYOSINI YO'QOTGAN QIRG'OQ" ROMANIDA  
TABIAT VA INSON MUNOSABATLARI BADIY TALQINI**

10.00.02 – O'zbek adabiyoti

**FILOLOGIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Urganch – 2025

UO'K: 821.512.133.09

**Filologiya fanlari bo'yicha falasafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации философии (PhD) по  
филологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) in  
Philology Sciences**

**Xajiboyev Kishin Alisher o'g'li**

Erkin Samandarning "Daryosini yo'qotgan qirg'oq" romanida tabiat va inson  
munosabatlari badiiy  
talqini.....3

**Хажибоев Кишин Алишер ўғли**

Художественная интерпретация природы и человеческих отношений  
в романе Эркина Самандара «Берег, потерявший свою  
реку».....25

**Xajiboyev Kishin Alisher o'g'li**

Artistic interpretation of nature and human relationships in Erkin  
Samandar's novel "The shore that lost its river" .....49

**E'lon qilingan ishlar ro'yxati**

Список опубликованных работ  
List of published works.....52

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI\_PhD.03/30.12.2019.Fil.55.02  
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI**

**XAJIBOYEV KISHIN ALISHER O'G'LI**

**ERKIN SAMANDARNING "DARYOSINI YO'QOTGAN QIRG'OQ" ROMANIDA  
TABIAT VA INSON MUNOSABATLARI BADIY TALQINI**

**10.00.02 – O'zbek adabiyoti**

**FILOLOGIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Urganch – 2025**

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.3.PhD/Fil3818 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universitetida bajarilgan.  
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume)) Ilmiy Kengash veb-sahifasining [www.urdu.uz](http://www.urdu.uz) hamda «Ziyonet» axborot-ta'lim portali [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz) manzillarida joylashtirilgan.

<b>Ilmiy rahbar:</b>	<b>Matkarimova Salomat Ko'ziyevna</b> filologiya fanlari nomzodi, dotsent
<b>Rasmiy opponentlar:</b>	<b>Baltayeva Gulchehra Shokirovna</b> filologiya fanlari doktori, dotsent <b>Yakubov Islamjon Axmedjanovich</b> filologiya fanlari doktori, professor
<b>Yetakchi tashkilot:</b>	<b>Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti</b>

Dissertatsiya himoyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti huzuridagi ilmiy daraja beruvchi PhD03/30.12.2019. Fil.55.02 raqamli Ilmiy kengashning "08" yanvar 2025-yil soat 09:00dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 220100, Urganch shahri, H.Olimjon ko'chasi, 14-uy. Tel.: (+99862) 224-67-00; faks: (+99862) 224-67-00 e-mail: fil-ik.urdu.uz.)

Dissertatsiya bilan Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (214) raqami bilan ro'yxatga olingan. Manzil: 220100, Urganch shahri, H.Olimjon ko'chasi, 14-uy. Tel.: (+99862) 224-67-00;

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "22" dehabr da tarqatildi.  
(2025-yil "22" dehabr dagi 69 raqamli reestr bayonnomasi).



**D.Q.G'ayipov**  
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash rasi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

**S.S.Atajanov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**A.D.O'razboyev**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar rasi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon adabiyotshunosligida tabiat va inson muammosining poetik talqini, bu yo'nalishda ijod etilgan lirik, epik va dramatik asarlarni o'rganish, tabiat va inson muammosining badiiy, falsafiy xususiyatlarini belgilash, estetik kategoriyalarini tayin etishda muhim ilmiy natijalar qo'lga kiritilmoqda. Adabiyotshunoslikda tabiat hodisalarining odam ko'nglidagi isyon, buyuk ehtiroslar ramzi sifatida tasvirlash, ruhan inson yoki insonlashtirilgan tabiat obrazini yaratish, tabiat va inson uyg'unligini ideal ruhiy maqom sifatida talqinlash muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Dunyo adabiyotshunosligida tabiat va inson muammosi faqat badiiy-estetik, ijtimoiy-falsafiy muammo emas, ayni paytda ekologik, iqtisodiy, psixologik, umummadaniy muammo sifatida global tushunchaga aylangani yuzasidan ahamiyatli ilmiy-nazariy qarashlar ilgari surilmoqda. Ayni holat jahon xalqlari adabiyoti namunalarida jamiyatdan jabr ko'rib tabiat panohiga intilayotgan, nabotot, jamodot, hayvonot olami bilan dardlashayotgan, asl o'zligi tomon yo'l izlayotgan odam obrazlarida yaqqol namoyon bo'layotganligiga katta e'tibor qaratilmoqda.

O'zbek adabiyotshunosligi tabiat va jamiyat munosabatlarining badiiy-estetik talqini masalasini alohida ijodkorlar asarlari misolida tadqiq etish, xususan, ularni obraz, xarakter, personaj ruhiy olami kontekstida o'rganish borasida so'nggi yillarda muayyan tajriba to'plamoqda. "Adabiyot va san'atga, madaniyatga e'tibor – bu avvalo xalqimizga e'tibor, kelajagimizga e'tibor ekan"<sup>1</sup>ligidan kelib chiqqan holda o'zbek adabiyotshunosligida tabiat va inson munosabatlarining so'z san'atida aks etishi muammosi, milliy qadriyatlarga qaytilayotgani, axloqiy meyorlar xalqimizning buyuk tarixi mezonlari doirasida qayta tiklanayotganini ochib berish, insonning shaxslik maqomi, millat va vatan taqdiriga aloqadorligi masalalarini aniqlash ilmiy-amaliy jihatdan dolzarbdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 22-oktabrdagi "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini oshirish haqida"gi hamda 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida Farmonlari, 2017-yil 24-maydagi PQ-2995-sonli "Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ'ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2017-yil 28-iyuldagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida"gi hamda 2022-yil 10-fevraldagi "Qadimiy yozma manbalarni saqlash va tadqiq etish tizimini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlari

---

<sup>1</sup> Мирзиёев Ш.М. Адабиёт ва санъат, маданиятни ривожлантириш – халқимиз маънавий оламини юксалтиришнинг мустаҳкам пойдевори // Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг Ўзбекистон ижодкор зиёлилари вакиллари билан учрашувдаги маърузасидан. Халқ сўзи, 2017 йил 4 август.

va ushbu faoliyat bilan bog'liq boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq ravishda bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** tabiat va inson muammosining badiiy adabiyotda tasvir etilishi masalasi jahon va rus adabiyotshunosligida atroflicha o'rganilgan bo'lib, bu borada bir qator tadqiqot ishlari yaratilgan<sup>2</sup>.

Tabiat va inson tasviri masalalari Hodi Zarifov, Umarali Normatov, Abdug'afur Rasulov, Qozoqboy Yo'ldoshev, Yo'ldosh Solijonov, Damir To'rayev, Boynazar Yo'ldoshev, Nurboy Jabborov, Bahodir Karimov, Uzoq Jo'raqulov, Islomjon Yoqubov, Hakimjon Karimov, Sarvar Atajanov, Umida Rasulova, Nigora Samandarova, Lola Samandarova kabi adabiyotshunos, folklorshunoslar tomonidan adabiy tanqid, adabiy jarayon, poetik talqin usuli, tabiat tasviri, badiiy obraz va syujet, uslub va poetik detallarning qo'llanishi singari ilmiy-nazariy muammolar atrofida, ilmiy maqolalar, ilmiy sharh va obzorlar, kichik tadqiqotlar tarzida o'rganilgan. Ayni paytda, tabiat va inson muammosiga doir nazariy jihatlar, Erkin Samandarning "Daryosini yo'qotgan qirg'oq" romanining ijtimoiy ahamiyati, milliy an'analar bilan bog'liqligi, uslubiy xususiyatlari, muayyan adabiy janr takomiliga oid yutuqlari muayyan ilmiy tadqiqotlar doirasida yoritilmoqda<sup>3</sup>.

---

Азарова Н.И., Засодимский П.В. Краткая литературная энциклопедия. – М.: Сов. Энциклопедия, 1964. – 998 с. Альберт И.Д. О некоторых особенностях изображения природы в русской прозе 1910-х г // Вопросы русской литературы. – М., 1989. Вып. 1 (24); – 42-50 с. Арсеньев К.К. Пейзаж в современном романе // Критические этюды по русской литературе. – Т. 1-2. Т. 2. Спб., 1888. – 294-335 с. Борзенко С.Г. Тургенев и природа // Вопросы русской литературы. – Львов, 1976. Вып. 2 (28). – 31-37 с. Бурилова Н.А. Национальное своеобразие решения проблемы человека и природы в прозе Г.А. Юшкова // Труды ИЯЛИ. Вып. 26, 1982. – 46-52 с. Гринфельд Зингурс, Т.Я. Природа в художественном мире М.М. Пришвина. – Саратов: Изд-во Саратовского ун-та, 1989. – 196 с. Гурленова Л.В. Чувство природы в русской прозе 1920-1930 х годов. – Сыктывкар: Сыктывкарский ун-т, 1998. – 179 с. Костюхин Е.А. Типы и формы животного эпоса. – М.: Главная редакция Восточной литературы, 1987. – 270 с. Азыркина Е.И. Человек и природа в мордовской прозе. Автореф. дис. канд. филол. наук. – Саранск, 1996. – 24 с. Бахова Э.А. Традиции русской литературы в осмыслении темы «человек и природа» в литературах народов северного Кавказа. Автореф.дис. канд.филол. наук. – Нальчик, 2005. – 20 с. Кипкеева Р.Э. Проблема природы и человека в Севернокавказской литературе: влияние литературных традиций и национальное своеобразие. Автореф. дис.канд.филол. наук. – Майкоп, 2020, – 25 с. Легонькова В.Б. Человек и природа в романе Л.Н. Толстого «Война и мир». Дисс.канд. филол. наук. – М., 2001. –187 с. Шаповалова Э.А. Природа как объект художественного осмысления (на материале украинской советской прозы 1917-1980 гг.). Дис. доктора филол. наук. – Днепропетровск, 1983. – 179 с.

<sup>3</sup> Расулов А. Бадиийлик – безавол янгилик. – Тошкент: Шарқ НМАКБТ, 2007.– 345 б.; Расулов А. Шайдолик /Норқобилов Н. Бўрон қўпган кун: Қисса ва ҳикоялар. – Тошкент: Шарқ, 2007. – 3-6 б.; Расулов А. Илми ғарибани қўмсаб... – Тошкент: Маънавият, 1998. – 63 б.; Жабборов Н. Маърифат надир. – Тошкент: Маънавият, 2010. – 144 б.; Жабборов Н. Адабиёт ва миллий маънавият. – Тошкент: Маънавият, 2015. – 34 б.; Жабборов Н. Замон, мезон, шеърият. – Тошкент: Ғ.Ғулом, 2015. – 304 б.; Жабборов Н. Маоний аҳлининг соҳибқирони. – Тошкент: Адабиёт, 2021. – 257 б.; Жўрақулов У. Назарий поэтика масалалари: Муаллиф. Жанр. Хронотоп. – Тошкент: Ғафур Ғулом нашриёти, 2015. – 356 б.; Жўрақулов У. Оталар фалсафаси ёхуд идиллик наср ҳақида // ҚарДУ хабарлари. – Қарши, 2020. – №3. – 160-168 б.; Имомова Г. Анъаналар сатҳидаги бадиий синтез. //

Biroq shuni alohida ta'kidlash kerakki, yozuvchi asarlari bir butun badiiy tizim tarzida, yagona monografik muammo doirasida maxsus tadqiq etilmagan. E.Samandar ijodining zamonaviy adabiy jarayon bilan mushtarak jihatlari, asrlarining umumiy ko'lami maxsus o'rganilmagan, ilmiy-tasnifiy nuqtai nazardan tizimga solinmagan. Yozuvchi asarlaridagi janrlararo tadrij masalasi, syujetlarning o'ziga xosligi, obrazlar tizimi, asarlaridagi individual badiiy talqin muammosi ilmiy asosda yoritib berilmagan. Xususan, tabiat va inson muammosining yozuvchi nasrida badiiy talqin etilishi alohida ilmiy masala sifatida tahlilga tortilmagan. Bularning barchasi Erkin Samandar nasrini individual badiiy tizim sifatida monografik tadqiq etish zaruratini ko'rsatadi.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy -tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Tadqiqot Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining № OF-07 "Adabiyotshunoslikning nazariy masalalari va folklorshunoslik muammolarini tadqiq etish" (2022-2024 yy.) mavzusidagi ilmiy-tadqiqot doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** Erkin Samandarning "Daryosini yo'qotgan qirg'oq" romanida tabiat va inson munosabatlari badiiy sintezining asar kompozitsiyasi, syujeti, obrazlar tizimi va uslubida aks etish qonuniyatlarini ochib berishdan iborat.

#### **Tadqiqotning vazifalari:**

yozuvchi Erkin Samandarning "Daryosini yo'qotgan qirg'oq" romanida tabiat va inson munosabatlari uyg'unligining ijtimoiy-falsafiy asoslarini aniqlash:

asarda tabiat va jamiyat voqeligi sintezining adabiy-estetik omillarini oydinlashtirish, muammoning zamonaviy o'zbek nasri kontekstidagi o'rnini dalillash;

roman kompozitsiyasida inson va tabiat uyg'unligi konsepsiyasi ifodasining o'ziga xos jihatlari aniqlash;

---

Шарқ юлдузи, 2010, – №5. – 160-164 б.; Имомова Г. Адабий-бадий синтез муаммолари. Ўқув-услубий қўлланма. – Қарши: ҚарДУ нашриёти, 2012. – 12-23 б.; Расулова У. Биринчи жумла масъулияти //Шарқ юлдузи, 2004. – №6. – 58-65 б.; Тилавов А. От образи: тарих, таҳлил ва талқин. Монография. – Тошкент: Сан-стандарт, 2021. – 160 б.; Тўраев Д. Рангин тасвирлар жилоси. – Тошкент: Академнашр, 2014. – 38-39б.; Ҳамроев К. Шукур Холмирзаев ҳикояларида композиция. – Тошкент: Муҳаррир, 2012. – 55 б.; Ҳамроев К. Ҳикоя композицияси. Монография. – Тошкент: Nurafshon business, 2020. – 140 б.; Расулова У. XX аср ўзбек қиссачилиги (поэтик изланишлар ва тараққиёт тамойиллари): Филол. фан. докт. (DSc) дисс. автореф. – Тошкент, 2020. – 68 б.; Якубов И.А. Мустақиллик даври ўзбек романлари поэтикаси. Филол. фанл. докт. (DSc) дисс. автореф. – Тошкент, 2018. – 28 б.; Йўлдошев Б. Қашқадарё адиблари. – Тошкент: Олтин нашр, 2020. – 223 б.; Қосимов У. Адабий-эстетик тафаккур тадрижи: анъанавийлик, ворисийлик, ўзига хослик (Абдулла Қодирий, Абдулла Қаҳҳор ва Тоғай Мурод ижоди мисолида): Филол. фанл. докт. (DSc) дисс. автореф. – Тошкент, 2020. – 30 б. ва бошқ. // Ҳакимжон К. Ҳозирги ўзбек насрида ҳаёт ҳақиқати ва инсон концепцияси. Филол. фанл. докт. (DSc) дисс. автореф. – Тошкент, 2005.// Атажанов С. Эркин Самандарнинг фольклоризмлардан фойдаланиш маҳорати. Филол. фан...фалсафа д-ри (PhD) дисс. – Урганч, 2022. // Самандарова Н. Истиқлол даври ўзбек тарихий романларида шоир ва мутафаккирлар образининг янги талқинлари (С.Сиев, О.Мухтор ва Э.Самандар романлари мисолида) Филол. фан...фалсафа д-ри (PhD) дисс. – Урганч, 2022. Самандарова Л. Хоразм адиблари ижодида фольклор анъаналари (мустақиллик даври). Филол. фан...фалсафа д-ри (PhD) дисс. – Урганч, 2020.

asar syujetida jamiyatning tabiatga, shuningdek, tabiat hodisalarining jamiyat voqeligiga ta'siri yoritilishi xususiyatlarini asoslash;

romanda tabiat va inson obrazining badiiy jihatdan uyg'un talqin etilishi xossalarini isbotlash;

romanda tabiat va insonni badiiy aks ettirishda realistik tasvir uslubi va yetakchi poetik muammolarni tadqiq etish.

**Tadqiqotning obykti** sifatida yozuvchi Erkin Samandarning "Daryosini yo'qotgan qirg'oq" romani belgilangan.

**Tadqiqotning predmetini** Erkin Samandarning "Daryosini yo'qotgan qirg'oq" romanida tabiat va inson munosabatlari janr, obraz, syujet, badiiy detal va uslub poetikasiga ko'ra qay yo'sinda badiiy tasvirlanganini aniqlash tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqotda qiyosiy, tarixiy-biografik, tizimli yondashuv, tavsiflash va statistik tahlil usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

Erkin Samandarning "Daryosini yo'qotgan qirg'oq" romani yaratilishiga tabiatga shafqatsiz munosabat natijasida Orol dengizining qurishi, otlar galasining nobud bo'lishi, tuz koni va Nayson buva yodgorligining vayron etilishi kabi ijtimoiy-falsafiy omillari asos bo'lgani ochib berilgan;

romanda tabiat va inson munosabatlari rivoya, tavsif, dialog va monolog singari epik turning kompozitsion shakllari – asar qahramoni Ganja ruhiyatining quyosh bilan xayoliy muloqoti orqali poetik ifodalangani asoslangan;

asar syujetida epizodik ekspozitsiya qo'llangani, tugunning Ganja va sohilda daryosiz kema, faqat manfaat yo'lida ishlaydigan tizimga bo'lgan munosabat vositasida o'ziga xos ifodalangani, konfliktning xarakterlararo, qahramon va muhit hamda ichki (psixologik) turlari roman badiiyatini oshirgani isbotlangan;

romanda tabiat va inson munosabatlari tasvirlangan obrazlar tizimi ikkiga bo'lingani: birinchi guruhi – bosh qahramon Ganja, yordamchi qahramonlar va epizodik obrazlar misolida, ikkinchi guruh nabotot, hayvonot va jamodot obrazlari (Amudaryo, Meliqush, G'irkovik, Qandim, qabar va h.k.)dan iboratligi dalillangan.

**Tadqiqotning amaliy natijasi** quyidagilardan iborat:

Erkin Samandarning "Daryosini yo'qotgan qirg'oq" romani tabiat va inson muammosiga ko'ra ilmiy tasniflash natijasida yozuvchi badiiy nasrining yetakchi xususiyatlari va ko'lami belgilangan;

tabiat va inson uyg'unligi muammosining adabiy-estetik, ijtimoiy-falsafiy omillari, muammoning zamonaviy o'zbek nasri kontekstidagi o'rni Erkin Samandar romanini tadqiq etish orqali tadrijiy yoritilgan;

"Daryosini yo'qotgan qirg'oq" romani orqali roman janri xususiyatlari, tabiat va inson obrazining uyg'un talqini, ulardagi realistik, naturalistik tasvir xususiyatlari ko'rsatib berilgan;

tabiat va inson munosabatlari muammosining roman obrazlari va roman konsepsiyasida namoyon bo'lish xossalarini aniqlash natijasida

yangi o'zbek romani takomili, tabiat va inson falsafasi masalasi yuzasidan xulosalar chiqarilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** qo'llanilgan ilmiy tahlil usullari, nazariy ma'lumotlarni taqdim etishda konkret ilmiy manbalarga tayanilgani, roman tahlili yetakchi ilmiy metodlar vositasida asoslangani, nazariy fikr va xulosalarning amaliyotga joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani, adabiyotshunoslikning mustaqillik davrida shakllangan yangi nazariy konsepsiyalari asosida o'rganilgani bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati adabiyotshunoslikda nasriy janrlar, ularning badiiyati muammolariga oid tadqiqotlarda erishilgan nazariy qarashlar va xulosalarni to'ldiradi, yangi tahlil yo'llari va nazariy fikrlar bilan boyitishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati mustaqillik davri o'zbek nasri, jumladan, Erkin Samandarning "Daryosini yo'qotgan qirg'oq" romani tadqiqotlar uchun material bera oladi. Oliy o'quv yurtlarining "Filologiya va tillarni o'qitish (o'zbek tili)" ta'lim yo'nalishida "Yangi o'zbek adabiyoti", "Adabiy jarayon", "Hozirgi o'zbek tanqidchiligi", "Adabiyotshunoslik (o'zbek adabiyoti)", magistratura mutaxassisligida "Hozirgi o'zbek adabiyoti tarixi", "Adabiy tanqid nazariyasi", "Nazariy poetika" va boshqa fanlardan ma'ruzalar o'qishda va amaliy mashg'ulotlar o'tkazishda, darslik va o'quv qo'llanmalar yozishda manba bo'lib xizmat qilishi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Erkin Samandarning "Daryosini yo'qotgan qirg'oq" romanida tabiat va inson munosabatlarining poetik talqini bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

Erkin Samandarning "Daryosini yo'qotgan qirg'oq" romani yaratilishiga tabiatga shafqatsiz munosabat natijasida Orol dengizining qurishi, otlar galasining nobud bo'lishi, tuz koni va Nayson buva yodgorligining vayron etilishi kabi ijtimoiy-falsafiy omillariga doir xulosalardan "O'zbekiston" telekanalining "Assalom Xorazm!", Erkin Samandarning "Daryosini yo'qotgan qirg'oq" tabiat va inson munosabatlari badiiy talqini mavzusida nomli ko'rsatuvlari ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (Xorazm viloyati teleradiokanali davlat muassasasining 2025-yil 13-maydagi 310-son ma'lumotnomasi). Natijada ushbu ko'rsatuvlarda tabiat va inson uyg'unligi muammosining adabiy-estetik, ijtimoiy-falsafiy omillari, Erkin Samandar romanlari janr xususiyatlarining tabiat va inson obrazi uyg'un talqinida ifodalanish usullari, tabiat va inson muammosining adib romanlari obrazlari va konsepsiyasida namoyon bo'lish xossalari bugungi kun uchun ahamiyatli bo'lgan jihatlari yoritilgan;

Romanda tabiat va inson munosabatlari rivoya, tavsif, dialog va monolog singari epik turning kompozitsion shakllari – asar qahramoni Ganja ruhiyatining quyosh bilan xayoliy muloqoti orqali poetik ifodalangan xulosalaridan Davlat ilmiy-texnik dasturlari doirasidagi 2021-2023 yillarda bajarilgan OT-F1-030. "O'zbek adabiyoti tarixi" ko'p jildlik monografiyasini (7

jild) chop etish fundamental loyihasida foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining 2025-yil 30-apreldagi 01/4-1789-son ma'lumotnomasi). Natijada Erkin Samandarning "Daryosini yo'qotgan qirg'oq" romanida jahon adabiy-estetik tafakkuri sintezi, adib romanida tabiat va inson konsepsiyasi obrazli namoyon bo'lishi, adibning adabiy-estetik qarashlari yuzasidan bildirilgan fikrlarni keng o'quvchilar ommasiga yetkazish imkoniyati yaratilgan;

"Daryosini yo'qotgan qirg'oq" romani syujetida epizodik ekspozitsiya qo'llangani, tugunning Ganja va sohilda daryosiz kema, faqat manfaat yo'lida ishlaydigan tizimga bo'lgan munosabat vositasida o'ziga xos ifodalangani, konfliktning xarakterlararo, qahramon va muhit hamda ichki (psixologik) turlari roman badiiyatini oshirgani isbotlangan xulosalaridan IL-402104474 "bolalaradabiyoti.uz" elektron platforma va uning mobil ilovasini yaratish" mavzusidagi amaliy loyihasida foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining 2025-yil 29-apreldagi 01/4-1747-son ma'lumotnomasi). Natijada tabiat va inson muammosining yozuvchining "Daryosini yo'qotgan qirg'oq" romani obrazlari va roman konsepsiyasida qanday namoyon bo'lishi asoslanishiga erishilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro, 4 ta respublika ilmiy-nazariy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 11 ta ilmiy ish e'lon qilingan bo'lib, shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, jumladan, 4 tasi respublika, 1 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, har biri ikki faslni o'z ichiga olgan uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, umumiy hajmi 151 sahifani tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan bo'lib, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti, fan va texnologiyalar rivojining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, ishonchliligi, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati, amaliyotga joriy etilishi, aprobatsiyasi, nashr qilingan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirib o'tilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**Tabiat va inson uyg'unligi muammosining ijtimoiy-falsafiy, adabiy-estetik omillari**" deb nomlangan. Bobning birinchi faslida "**Tabiat va inson uyg'unligi muammosining ijtimoiy-falsafiy asoslari**" tadqiq etilgan. Adabiyotda shunday bir muammolar qalamga olinadiki, u faqat adabiy-estetik mavzudagina emas. Uning badiiy-poetik miqyosi ijtimoiy, hatto falsafiy tafakkur darajasigacha kengayib borishi mumkin. Zero, adabiyot, ayniqsa, badiiy nasrda qadimdan buyon

davom etib kelayotgan tabiat va inson muammosi mana shunday muhim masalalardan biri hisoblanadi.

Insoniyat qadim davrlardan buyon tabiat bilan birgalikda yashab keladi. Inson tabiat hodisalarini kuzatadi, lozim bo'lganda ular bilan kurashishga majbur bo'ladi. Tabiatni sevadi, undan mehr-oqibat ko'radi. Ba'zida esa tabiat hodisalarining qurboniga aylansa, o'rni kelganda onadek mehribon tabiatni o'z manfaati yo'lida qurbon qiladi. So'nggi holat shoir, nosir va dramaturg Erkin Samandarning "Daryosini yo'qotgan qirg'oq" romanida ham kuzatiladi. Romanda tabiat, Orol muammosi bilan birga inson ma'naviyatida sodir bo'layotgan qashshoqlik, fojia va ularning oqibatlarini bartaraf etish, madaniy merosimizni asrash, ularga sadoqatli bo'lish, muhabbat va qabohat o'rtasidagi kurash o'z ifodasini topadi.

Erkin Samandar Asqad Muxtor, Tog'ay Murodlardan so'ng tabiat va inson munosabatlarini milliy ruhda jonlantirgan ijodkor bo'ldi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Mazkur romanda tabiat va inson munosabatlari talqini markazida ikki unsur – suv va tuproqqa insoniyat tomonidan yetkazilgan zarar, tabiatning bir bo'lagi bo'lgan G'irkovik va Meliqush boshchiligidagi otlar galasining nobud bo'lishi hamda tuz koni va Nayson buva yodgorligining yo'q qilinishi, Qirtepaning portlatilishi kabi masalalar asosiy mazmun kasb etadi. Romandagi voqealar syujeti asos zaminiga ko'ra tabiat va inson munosabatlarining qadim ildizlaridan suv ichadi. Kuzatishlarimiz natijasida Erkin Samandarning "Daryosini yo'qotgan qirg'oq" romani tabiat va inson uyg'unligi muammosini yangicha talqin etishi bilan hozirgi o'zbek nasri tarixida muhim ahamiyat kasb etadi. Asarda muallifning olam va odam haqidagi falsafasi badiiy aks etgan. Sovet hukumati qo'lida qo'g'irchoq rahbarlar boshchiligidagi sodda odamlarning tabiatga beshafqat munosabatda bo'lishi natijasida tabiat insondan o'ch olishi ijtimoiy-falsafiy asoslar, aniq dalillar bilan ochib berilgan. "Daryosini yo'qotgan qirg'oq" romanida Orol dengizining qurishi, Tuyamo'yinda Amudaryo suvining to'silib, bahaybat to'g'onlarning va suv omborlarining qurilishi, natijada, bu yerdagi Kiyikto'qay, Bog'iston, Otaqo'rg'on, Mazdubat tuz koni kabi joylarning suv tagida qolishi, yer osti suvi yuzaga ko'tarilib, yerlarni suv bosishi, bog'-rog'larning qurib qolishi kabi muammolar obrazli yoritiladi.

"Daryosini yo'qotgan qirg'oq" romanida tasvirlangan O'zbekistondagi mineral resurs Mazdubat tuz koni qorayantoqliklarning rizq-nasibasi edi. Shu rizq-ro'zdan nasibalari uzilishini bilgan qorayantoqliklar g'or oldida yig'ildilar. Aminovning buyrug'i bilan g'orning og'zini betonlashga kelgan quruvchilarning oldiga peshvoz chiqdilar. Betonlash tuz koni va g'orni saqlab qolish uchun jon-jahdi bilan harakat qilayotgan qurilish injeneri Ganjaning uchastkasiga topshirildi. Bunga toqat qilolmagan Ganja bu ishdan bosh tortdi. Ganja o'zi Aminovga "Bu yerlarga bitta suv ombori yetadi, 4 ta bahaybat suv ombori nimaga kerak? Bu tabiatga jiddiy zarar yetkazadi. Amudaryoni bo'g'ish juda xavfli" degan so'zlari va bu borada tuzgan loyihalari uchun yoqmay yurgan edi. Fursatni qochirmasdan Aminov

Ganjani ishdan bo'shatdi. Bu ham yetmagandek, keyinroq uni qamatib ham yubordi.

Asarda tuz konini saqlab qolish uchun harakat qilgan Ganja, Buva va u boshchiligidagi qariyalar, mahalla faollari Aminov, mayor Rahmonov, Nazarov kabi "aqli" rahbarlar tomonidan izza qilinadi. Buvaning "Tuz koni muqaddas joy, uni bosqilash, vayron etish mumkin emas. Shunday mo'jizani yo'qotishga qo'llaring qanday boradi? Yuraklaring qanday betlaydi?"<sup>4</sup> degan so'zlariga parvo ham qilishmaydi. Yana bir tabiat ne'mati, qorayantoqliklarning muqaddas joyini yo'q qilishadi. Sodda odamlarni Duldulsoyni shaharga aylantirib, barcha hududlarga elektr tarqatish, gidrouzel, maktab, bog'cha, shifoxonalar qurish kabi puch yolg'onlar bilan aldashadi.

Damba qurish maqsadida tuz g'orining og'zini betonlab qo'yish, bu xalqning rizqini qiyish bilan birga, tabiatga ham jiddiy zarar ekanligi Ganja bilan Buvani rosa o'ylantirar edi. Nahotki, shunday qudratli Amudaryoning yo'lini to'sib, ko'zlangan yerga boshqarish mumkin bo'lsa? Bu shunchalik osonmi? Eh, bechora daryo? Insonlar o'zi shunaqa, tabiatni ona deydi-yu, biroz aqli, kuchli bo'lib olishgach, unga xiyonat qiladi, hatto o'ldiradi.

Asarda muallif falsafasi shundan iboratki, inson tabiat himoyasi uchun doimo shay tursin, tabiat qiyofasida kuchsiz, madad va e'tiborga muhtoj yaqinini ko'rsin. Inson uni aqli, sezgir sohib, mehrlil himoyachi kabi o'rgansin. Bu ijtimoiy-falsafiy asoslar Ganja, Buva, Qurbon obrazlari orqali kitobxonlar ongiga singdirilgan. Aslida, romanda ona tabiatga nisbatan insonlar munosabatining salbiy tus olishi insonning tabiat ustidan hokimligi borasidagi g'ayriinsoniy falsafaga ergashishi natijasidir. Asardagi "Zarbdor" qurilishi boshlig'i G'ani Aminov, tuz g'ori ustidan damba qurmoqchi bo'lgan mayor Rahmonov, nozir Nazarovlar shunday insonlardan edi. Tabiat va inson uyg'unligining o'zagi milliy qadriyatlarga qaytish, tabiatga nisbatan axloqiy meyorlarni o'tmish mezonlari asosida tuzishdir. Bu haqida Umida Rasulova shunday deydi: "Boshqaruvchi odamzod borliqning tirik ekanini doim his qilmog'i lozim; hayvon, qurt-qumursqa – bari harakatda. Ona zamin bag'riga yaratilganlarni sig'diraveradi, yaratilganlar o'z navbatida almashinib turaveradi (hayot va o'lim). Yashash, xayrli umr kechirish oliy maqsad sanaladi. Inson nabotot-u jamodotga habib tutinib, uni ardoqlamog'i kerak. Ota-bobolarimiz bu axloqiy aqidani dasturilamal etganlar"<sup>5</sup>.

Umuman olganda, tabiat va inson uyg'unligi muammosini yoritishda ijodkorning ijtimoiy-falsafiy tafakkuri keng ekanligi ohori to'kilmagan tasvirlarda, muammoga yechim berishda yaqqol namoyon bo'ladi.

Bobning ikkinchi fasli "**Tabiat va inson uyg'unligi muammosining adabiy-estetik omillari**" deb nomlangan. Tomchida quyosh aks etganidek, yozuvchining ichki olami uning asarlarida, aniqrog'i, yaratgan

---

<sup>4</sup> Самандаров Э. Файб қушлари. – Тошкент: Шарқ, 2009. – Б. 71

<sup>5</sup> Расулова У. "XX аср ўзбек қиссачилиги (поэтик изланишлар ва тараққиёт тамойиллари)". Филол. фанл. докт. (DSc) дисс. автореф. – Тошкент, 2020. – Б. 22.

qahramonlarining tabiatida o'z in'ikosini topadi. Inson olam ichidagi bir olam ekan, uning biz bilmagan, xayol tulporlarimiz qadam tashlamagan fitratining sarhadlari-da ko'p. Erkin Samandar o'z asarlarida ana shunday olamga, oddiy odamlarining botinidagi sirli olamiga kirib boradi. Bu odamlar biz uchun mutlaqo tanish, shu bilan birga kutilmagan ma'naviy qiyofaga ega.

"Badiiy adabiyot va san'atda realistik tamoyillarning hukmron mavqe egallashi barobarida roman janrining gurkirab rivojlanishi kuzatiladi. Sababki, real voqelikni badiiy tadqiq etish, odam va olam haqidagi qarashlarni butlash-u yaxlit ifodalash imkoniyatlarini berishi jihatidan romanga teng keladigani yo'q"<sup>6</sup>, - deganda D.Quronov haq edi. Erkin Samandar ham Orol muammosini yoritishda shu yo'ldan bordi. Yurtimizda sodir bo'lgan bu ulkan ekologik muammoni roman janrida aks etdirdi. Bu haqida Sobir Mirvaliyev shunday yozadi: "Erkin Samandar nosir sifatida ham ko'plab publitsistik asarlar va ocherklar muallifidir. Ayniqsa, uning "Daryosini yo'qotgan qirgoq" romani yetuk romannavis sifatida ham shakllanayotganidan darak beradi. Unda tabiat, Orol ekologiyasigina emas, eng muhimi, ma'naviyat ekologiyasi sohasida sodir bo'layotgan qashshoqlik, fojia va ularning ildizlari, oqibatlarini ochish, muhabbat bilan qabohat o'rtasidagi kurash hayotiy tarzda o'z ifodasini topgan. Chin muhabbat, chin do'stlik hamisha og'ir bo'lsa ham qabohat, xoinlik, xiyonatdan ustun kelishi umumlashtirilgan"<sup>7</sup>. Erkin Samandar asarlaridagi qahramonlar, asosan, realistik obrazlardir. Ular uchun muayyan bir shaxslar asos bo'lgan va yoki adibning diqqatiga tushib, uni ilhomlantirgan. Shubhasiz, adibga ko'pincha o'z hayoti chinakam manba bo'la oldi. Uning badiiy matnni yuzaga keltirishda obrazli tafakkur vositlaridan unumli foydalanishi adabiy mahoratini belgilovchi omillardan biridir.

Dunyo adabiyotida shunday voqealar yuz beradiki, ba'zan boshqa-boshqa millatlarga mansub buyuk ijodkorlar bir-biridan bexabar holda o'zaro o'xshash holda asarlar yaratadi. Eng qizig'i, bunda syujet va kompozitsiyaning o'zaro yaqin ekani har ikki asarning originalligiga zarracha bo'lsin xalaqit bermaydi. Hech bir jihatdan ular bir-birini takrorlamaydi. Buning sabablarini Oybachin Abdulhakimova shunday ko'rsatadi: "1) har bir ijodkor uslubining o'ziga xosligi; 2) mavzuga yondashuv mezonlarining farqlanishi; 3) poetik tasvirdagi individuallik"<sup>8</sup>. Bizningcha, bu fikrlarga qo'shimcha ravishda adabiy-estetik hodisaning yana boshqa ikkinchi ko'rinishi – bir ijodkorlar asarlarini tarjima qilish natijasida unga ergashib mutlaq mukammal, original asarlar yaratilishi mumkin. Uchinchi ko'rinishi esa bir ijodkor o'zidan oldingi ijodkor asarlarini mutolaa qilib, undan ta'sirlanishi natijasida original asarlar yaratilishi mumkin. Bunday asarlarni qiyosiy o'rganish badiiy adabiyot sirlarini,

<sup>6</sup> Quronov D. Cho'lpon nasri poetikasi. – Toshkent: Sharq, 2004. – B. 271

<sup>7</sup> Mirvaliyev S. Ўзбек адіблари. – Тошкент: Фан, 1993. – Б. 102

<sup>8</sup> Абдулҳақимова О. Абдулла Орипов адабий-эстетик қарашлари. Филол. фан. бўй. фалс.док... дисс. – Тошкент, 2022. 3 б.

shuningdek, ijodkor ruhiyatini anglashda alohida ahamiyat kasb etadi.

Qirg'iziston xalq yozuvchisi Chingiz Aytmatovning "Asrga tatigulik kun", "Qiyomat" romanlari va "Oq kema" qissasi "Daryosini yo'qotgan qirg'oq" romanining yaratilishiga zamin yaratgan asarlar desak mubolag'a bo'lmaydi. Erkin Samandarning roman yaratishdagi uslubi, kompozitsiya, ba'zi obrazlari Chingiz Aytmatov romanchilik mahoratini eslatadi. Ammo asarlararo umumiy va xususiy jihatlarning maydonga kelish jarayonlari tamomila o'zgacha qonuniyatlar mahsulidir. "Daryosini yo'qotgan qirg'oq" va "Qiyomat" romanlarida ijtimoiy voqeliklar bilan birga ekologik muammolar qalamga olinsa-da, asarlardagi obrazlar, voqealar rivoji, tugun, yechim boshqacha. Bunda ikki ijodkor o'z uslubidan kelib chiqadi.

"Daryosini yo'qotgan qirg'oq" romani yozuvchi ijodiy niyati va badiiy-estetik ideali mahsulidir. Unda milliy ruh nafasi ufurib turadi. Erkin Samandar ijodida ko'zga tashlanadigan yana bir jihat, bu asar sarlavhasi, ya'ni nomidir. Erkin Samandar nom tanlash borasida har bir asarida muvaffaqiyatga erisha olgan.

Ijodkor va so'z badiiy ijod jarayonining asosini tashkil etadigan tushunchalardir. Erkin Samandar ushbu so'zlarni ham ijodkor, ham jurnalist sifatida bir-biri bilan chambarchas bog'liq holda idrok etgan. Uning uchun so'z – eng qudratli kuch. Ayniqsa, xalq og'zaki ijodi yuksak iste'dod egalari uchun ilhom manbaidir. Erkin Samandar "Daryosini yo'qotgan qirg'oq" romanida keltirilgan tarixiy obidalar, Qirtepa, Mazdubad tuz koni kabi joylar real ijtimoiy voqealar bilan birgalikda kelib chiqishi va paydo bo'lishi haqidagi rivoyatlar bilan uyg'unlik kasb etib, asarning qimmatini yanada oshiradi. Muallif rivoyatda mubolag'a, o'xshatish, portret kabi badiiy san'atlardan unumli foydalanadi. Erkin Samandar folklor asarlaridagi motivlarni aynan takrorlamaydi. Ularni ijodiy qayta ishlaydi, individual falsafiy qarashlari bilan boyitadi, poetik talqin jihatdan mukammal darajaga yetkazadi. Erkin Samandar badiiy-estetik tafakkurining o'ziga xosligi shundaki, u muayyan hodisaga yoki ma'lum bir mavzuga kutilmagan tomondan yondashadi. Jumladan, xalq og'zaki ijodiga xos obrazlar talqinida ham hech bir ijodkorni takrorlamaydi.

Har bir davr adabiyotining g'oyaviy hamda adabiy-estetik xususiyatlari, mazmuniy mundariyasi, avvalo, o'sha davrning ijtimoiy-tarixiy shart-sharoitlari bilan belgilanadi. Romanda ijtimoiy davr bosh qahramon taqdirining fojiali bo'lishiga olib keladi. Yozuvchi tabiat va inson munosabatlari masalasini keng yoritib, odamlarning tabiatga tajovuzini va buning oqibatida yuz bergan axloqiy, ma'naviy buzilishlarni, ezgulik bilan yovuzlik o'rtasidagi kurashni aks ettiradi. Daryosini yo'qotgan qirg'oq, deganda odamning ma'naviyatini, uning umr bog'lariga hayot baxsh etguvchi daryoni-da nazarda tutadi. Erkin Samandar XX asr oxirlaridagi O'zbekiston hayotini ezgu va razil kimsalar o'rtasidagi to'qnashuvlar, ijtimoiy jarayonlar zamirida Ganja, Obod, Buvaning ayanchli taqdiriga sabab bo'lgan shart-sharoitlarni, jamiyatni, turfa xil kishilar xarakterini gavdalantirib bera olgan. Inson tomonidan tabiatning nobud qilinishini

qattiq qoralagan.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Roman kompozitsiyasi va syujetida tabiat va inson uyg'unligi konsepsiyasining o'rni”** deb nomlangan. Birinchi faslida **“Asar kompozitsiyasida tabiat va inson uyg'unligi”** masalasi tadqiq etilgan. Yozuvchi ijodida tasvir tamoyillarining shakllanishi, o'ziga xos tarzda namoyon bo'lishi, avvalo, adabiyotga olib kirilgan hayot materialining mazmundorligi, rang-barangligi, takrorlanmasligi bilan bog'liqdir. Erkin Samandar adabiyotga Xorazm koloritini - o'zi tug'ilib o'sgan Xiva va u yerdagi Amudaryo va Polvonyop kanali suvlarining manzaralarini, xorazmliklar hayotini, udumlarini, betakror so'zlash tarzini - dialektini olib kirdi. Bu xususiyat ko'proq yozuvchining milliy - mahalliy koloritga boy bo'lgan **“Daryosini yo'qotgan qirg'oq”** romanida ko'zga tashlanadi. Adib ijodining, xususan, romanning o'ziga xosligi, betakrorligi ham mana shu sabablardan kelib chiqqan. E.Samandar global muammoga aylangan tabiat va inson munosabatlarini yangicha talqin etishga intildi. Bu bejiz emas, chunki bolaligi aynan tabiat qo'ynida o'tgan yozuvchi qalbiga bu mavzu juda yaqin edi. Romanda adib inson va daryo, hayvonot dunyosi, o'simliklar olamining bir-biriga uzviy bog'liqligi, ularning ayri yashay olmasligi, birining ikkinchisiga ta'sirini, tabiatning insonni tarbiyalashdagi ahamiyati va odamlarning tabiatga qilgan yovuzliklarini ko'rsatadi va bu bilan yozuvchi o'z maqsadiga erishadi. Tiriklik ramzi bo'lmish suv, havo, tuproq, olovga nisbatan insonlar tomonidan xiyonat qilinayotgani chuqur qayg'u bilan ochiqlanadi. Bu to'rt unsur hamma xilqatlar: odamzod, nabotot, jamodod, hayvonot uchun muhim. Ularni xalq og'zaki ijodi, mumtoz va zamonaviy asarlarda inson bilan uyg'unligi talqin etib kelingan. Ijodkor bugungi kunda ekologik muammoga aylangan jarayonni yoritish maqsadida o'z vatanida ro'y berayotgan muammoli vaziyatlarga nigoh tashlaydi. O'z navbatida, asarda tabiat va uning moddiy imkoniyatlaridan - yer, suv, nabotot va hayvonot olamidani insonlarcha foydalanishni bilmaslik, tabiatning barcha unsurlariga nisbatan qo'pollik bilan qilingan munosabatning zararli oqibatlarini yuzaga keltirishi muqarrarligi qahramonlarning taqdiri, maishiy va ichki ruhiy hayoti fonida badiiy tadqiq qilinadi. Bunday asarlarning aksariyati insoniyat ertasini, istiqboli uchun qayg'urishning, ajdodlarimizdan bizga meros bo'lib qolgan va o'z navbatida biz ham avlodlarga bekam-u ko'st yetkazishimiz lozim hisoblangan moddiy va ma'naviy boyliklar manbayi - tabiat to'g'risida g'amxo'rlikning samarasi sifatida tug'ilganligi shubhasizdir.

“Zamonaviy adabiyotshunoslikda epik asar qurilishini tadqiq etishda matn kompozitsiyasi, syujet kompozitsiyasi, personajlar sistemasi, badiiy vaqt va zamon, rivoya kompozitsiyasi, nuqtai nazar kompozitsiyasi kabi masalalar diqqat markazida turadi. Epik asar matni rivoya, tavsif va dialogdan tarkib topadi, shu bois ular epik nutqning kompozitsion shakllari sifatida e'tirof etiladi<sup>9</sup>. Shunday ekan biz, avvalo, romandagi tabiat va inson

---

<sup>9</sup> Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent: Noshir, 2019. – B. 128.

uyg'unligini ushbu kompozitsion shakllar asosida ko'rib chiqamiz.

Badiiy matnda shakl va mazmun uyg'unligi muallif niyatini teran anglatishga imkon beradi. Mazmunni shakllantirish va ifodalash uchun eng qulay tarzda uyushtirish kompozitsiya zimmasidagi vazifa sanalsa, ularni bir butun, yaxlit holda ko'rsatish sintezning vazifasi hisoblanadi.

"Daryosini yo'qotgan qirg'oq" romani badiiy nutq shakllariga ko'ra rivoya, tavsif va dialog, monologdan tashkil topadi. "Rivoya makon va zamonda kechgan voqealarni so'z vositasida aks ettirish, sodda qilib aytsak, hikoya qilishdir. Avvalo aytish kerakki, xuddi ko'chirma gap tarkibida avtor gapi sintaktik qurilmani yaxlitlashtiruvchi unsur bo'lgani kabi, rivoya ham epik asar nutq shakllarini yaxlitlashtiruvchi omildir. Ya'ni tavsif ham, dialog ham rivoya orqali, bamisoli rivoyaga o'rab taqdim etiladi. Agar rivoya obykti harakat bo'lsa, tavsif turg'un holatdagi narsa, joy, holat, xususiyat kabilarni o'z ichiga oladi"<sup>10</sup>.

Romanning boshlanishida muallif bosh personaj Ganjani besh yil qamoq jazosini o'tab yorug'likka chiqishini qayd etadi. So'ng voqea yuz bergan joyning umumiy manzarasi tasvirlanadi: "Ketida qolayotgan temir eshikni anchagacha mungli dil ko'zi bilan ko'rib turdi. Qayrilib bir qaramoqchi ham bo'ldi. Lekin qaramadi. Quyoshga yuzini tutdi. Yuziga to'kilgan quyosh asta-asta butun tani badaniga hovur baxsh etdi. Ko'kdan cho'zilgan nur barmoqlari, bo'ynini, yelkalarini siypadi. Kuylagining tugmalarini yechgan Ganja quyosh saxovatidan iyib turaverdi"<sup>11</sup>. Muallif bu tavsifda Ganja qamoqxonadan chiqqanida uni birinchi bo'lib qaynoq mehri ila kutib olgan quyosh portretini chizadi. Asar boshidanoq tabiat haqida so'z ochadi. Go'yoki asarning asosiy qismi tabiat haqida ekanligiga ishora qilgandek. Matnning keyingi bo'lagi rivoya shaklida: "Ganja quyosh saxovatidan iyib turaverdi. Yoniga qamoq nazoratchisi keldi". Avvalgi bo'lakdan farqli o'laroq, bunda harakat tasvirlanmoqda, ya'ni bu – mahbus Ganjani kuzatayotgan nazoratchining harakati. So'ng Ganja bilan nazoratchi suhbat tasvirlanadi – dialog boshlanadiki, u ham o'z navbatida tavsif, shuningdek, rivoya unsuri bo'lmish izoh va sharhlar – muallif remarkalari bilan almashinib turadi.

Sirtidan qaralsa, rivoya salmog'i tavsif va dialog salmog'iga nisbatan juda kamdek. Shunga qaramay, rivoya uyushtiruvchilik, tashkillovchilik maqomida turadi. Nega deganda, hikoya qilinayotgan voqea – tabiat insonlar tomonidan muhofaza qilinishi kerakligini uqtira olmagan, so'ng dushmanlarining rejasi asosida qamalib, endi ishini davom ettirish uchun o'tlanayotgan Ganjaga oid tafsilotlar va bu sharafli yo'lga uni kuzatayotgan nazoratchi orasida kechgan suhbat asardan o'rin olgan. Roman uchinchi shaxs tilidan hikoya qilinadi. Shunga ko'ra roviy muallifning o'zi, ya'ni roviy - muallif. Bu haqida muallif: "...Men odamlarning tabiatga tajovuzini va buning oqibatida yuz bergan axloqiy, ma'naviy buzilishlarni, ezgulik bilan

<sup>10</sup> Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent: Noshir, 2019. – B. 129.

<sup>11</sup> Самандаров Э. Ғайб қушлари. – Тошкент: Шарқ, 2009. – Б. 6

yovuzlik o'rtasidagi kurashni aks ettirdim"<sup>12</sup> - deydi, biroq muallif asar voqeligida ishtirok etmaydi.

Bobning ikkinchi fasli **"Roman syujetida tabiat va inson konsepsiyasi ifodasi"** deb nomlanadi. "Syujetning badiiy asardagi funksiyalari haqida so'z ketganda, avvalo, uning asar problemasini badiiy tadqiq etishga imkon beradigan hayot materialini uyushtirib berishini aytish kerak"<sup>13</sup>. Shunday ekan "Daryosini yo'qotgan qirg'oq" romanidagi syujetda tabiat va inson mukammal birlik hosil qiladi. Bu birlik insoniyat nafsli sababli buzilganda, Amudaryo suvining kamayib ketishi, Orol dengizining qurishi kabi jiddiy muammolarga olib kelishi romanga Ganja va Amudaryo liniyasiga uzviy bog'langan holda olib kiriladi. Boshqa voqealar shu liniyaga bog'lanadi. Ganja Qorayantoq qishlog'i farzandi sifatida Amudaryo bo'ylarida voyaga yetadi. Asar voqealarining aynan Amudaryo qirg'oqlarida ro'y berishi muallif ijodiy niyati ijrosi uchun aynan maqbul variant. Daryo va Orol dengizidagi o'zgarishlar, avvalo, uning atrofida yashaydigan aholini tahlikaga solishi tabiiy hol. Shu sababli asarda Qorayantoq, Duldulsoy, Kiyikto'qay, Bog'iston kabi Qoraqalpog'iston va Xorazmdagi daryo bo'ylarida joylashgan joylar obyekt sifatida tanlab olinadi.

Badiiy asar syujeti ekspozitsiya, tugun, voqea rivoji, kulminatsiya, yechim singari unsurlardan tarkib topadi<sup>14</sup>. "Daryosini yo'qotgan qirg'oq" romani ham shunday mukammal tarkibga ega. Uning ekspozitsiyasi birinchi qismning boshida beriladi. Ganja qamoqdan chiqib, Amudaryo qirg'oqlariga keladi va daryoni, sohilda daryosi va egasi tashlab ketgan kemani ko'rib, uzoq o'yga toladi. Besh yil oldingi hayotini bir-bir eslaydi. Yo'l-yo'lakay roman qahramonlari bilan birma bir tanishtirib o'tadi. Asarlarning voqealar ro'y beradigan joy, qahramonlar tasviri bilan boshlanishi, ya'ni ekspozitsiyaning asar boshlanishida berilishi badiiy asarlarga xos ananaviy uslubdir. Romanida tugundan so'ng ekspozitsiya, ya'ni ekspozitsiyaning kechiktirilgan turi ham beriladi. Asarda obraz darajasiga ko'tarilgan Meliqush, Qandim, G'irkovik kabi otlar kitobxonda katta qiziqish uyg'otadi. Muallif otlarning Kiyikto'qayga qanday qilib kelib qolganligi haqida hikoya qilar ekan, orada asar qahramonlari haqida ma'lumot berib o'tadi. Bu kabi tushuntirish-ekspozitsiyalar sochma tarzda asarning turli o'rinlarida berilganini ko'ramiz. Erkin Samandar ekspozitsiyani voqealar rivojidan uzilmagan holda, mahorat bilan tasvirlaydi. Bu romanning qimmatini oshirib, kitobxon ishtiyoqini susayib qolishidan asraydi. Yozuvchining ekspozitsiyadan foydalanishdagi alohida uslublaridan yana biri shundaki, muallif asardagi kichik qahramon, ya'ni ilmiy tilda epizodik obraz deb nomlangan epizodga ham ekspozitsiya keltiradi. Asar bosh qahramoni Ganjani onasining vafotidan keyin o'zi boqib olgan ammasi Anor xola haqidagi ekspozitsiya, tillafurush ayol

<sup>12</sup> Самандаров Э. Файб қушлари. – Тошкент: Шарқ, 2009. – Б. 356

<sup>13</sup> Quronov D. Adabiyot nazariyasi. Darslik. – Toshkent: Noshir. 2019. – B. 116

<sup>14</sup> Quronov D. Adabiyot nazariyasi. Darslik. – Toshkent: Noshir. 2019. – B. 119

Oltinoy opa haqidagi ekspozitsiyalar shular jumlasidandir.

Roman tuguni ham o'ziga xos tasvirlanadi. Asosiy ekspozitsiyadan so'ng, tugunga navbat beriladi. Ganja mahkumlikdan qutulib, Amudaryoni ziyorat qiladi. Daryoning ahvolini ko'rib xafa bo'ladi. Qumri bilan nikoh kuni Amudaryodan suzib o'tgan katta guldor kemanding sohilda daryosiz, abgor yotgan holati uni yana alam, g'azab otiga mindirdi. O'tmishda boshidan o'tgan voqealar uni ezdi. Buning sababchisi Aminovga, qolaversa, faqat manfaat yo'lida ishlaydigan tizimga bo'lgan nafrati yanada oshdi. Yuragi gup-gup urib, isyon ko'targan tovushlarini chiqarib yubormaslik uchun tishini tishiga qo'ydi.

Romanda kulminatsion nuqtadan oldin muallif bir oz lirik chekinish qiladi. Ganjaning ham vijdon azobi, ham qasos otiga minganligi sababli g'azabini bosish uchun ruhiga madad olish uchun Xiva minoralari, gumbazlarini, madrasa-yu yodgorliklarni sayohat qiladi. Bu ruhga orom beruvchi sayohatni u quyidagi go'zal so'zlar bilan boshlab beradi: "Havolanib ketsang qabristonga bor, mung va hazinlikni ko'zib hovuring bosiladi. Agar ruhing cho'kib ketsa daryoga bor, uning asov mavjlarini ko'rib, ko'ksing tog'day ko'tariladi. Lekin endi Amudaryoga ruh tushganida emas, balki yuraging toshib, bosar-tusaringni bilmay qolganingda borganing ma'qul. Daryoning mahzunligini ko'rib, ruhing chilparchin bo'ladi"<sup>15</sup>. Shu sababli Ganja siniqqan ruhlariga taskinni faqat Xivadan izlaydi. U Ichanqal'a, Kaltaminor, Feruz madrasasi, ko'hna Ark, Oq shayx bobo tepaligi, Pahlavon Mahmud maqbarasi kabi muqaddas joylarni ziyorat qilib chiqadi. Ushbu lirik chekinish orqali Erkin Samandar o'zbekona qadriyatlarimizni ham ko'rsatib o'tgan.

Voqealar rivojidan so'ng romanning kulminatsion nuqtasi keladi. "Kulminatsion nuqta, ya'ni badiiy konfliktning uchta turi farqlanadi:

1. Xarakterlararo konflikt.
2. Qahramon va muhit konflikti.
3. Ichki(psixologik) konflikt"<sup>16</sup>.

Romanda konfliktning ushbu uch turi aralash keladi va o'zaro uzviy aloqada bo'ladi. Obod va Ganja o'z muhiti bilan kurashga kirishgan qahramonlardir. Ularning muhit bilan ziddiyati esa uning Aminov bilan o'zaro ziddiyatli munosabatlari fonida yetishadi, ayni shu munosabatlar qahramonlar ruhiyatidagi murakkab jarayonga – ongidagi o'y-fikrlar kurashiga turtki beradi.

Romanda ma'naviy tanazzulga uchragan odam hayvonotdan ham tuban tushishi, zulm qilingan tabiat odamlardan ayovsiz o'ch olishi haqidagi roman konsepsiyasi shunday syujet asosida yuzaga qalqib chiqadi. Roman o'z kitobxonlarini tabiat va inson o'rtasidagi uyg'un munosabatlarni buzmaslikka da'vat etishi bilan ulkan ma'naviy-axloqiy ahamiyat kasb etadi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **"Tabiat va inson tanosubining obraz**

<sup>15</sup> Самандаров Э. Ғайб қушлари. – Тошкент: Шарқ, 2009. – Б. 172

<sup>16</sup> Quronov D. Adabiyot nazariyasi. Darslik. – Toshkent: Noshir. 2019. – B. 124

va uslubda aks etishi” deb nomlanib, birinchi **“Muammoning asar obrazlari vositasidagi talqini”** faslida roman obrazlari ustida fikr yuritiladi. Roman g’oyasini tashkil etuvchi asoslardan eng muhimi roman obrazlari hisoblanadi. “Markaziy obrazlar vositasida yozuvchi o’zining eng muhim konsepsiyalarini ifodalaydi. Boshqa barcha yondosh obrazlar mana shu markaziy obraz ruknlarini tashkil etadi. Zeroki, har qaysi badiiy asar markazida odam turadi. Markazdagi odam obrazining mukammalligi roman konsepsiyasi mukammalligini ham ta’minlaydi”<sup>17</sup>. Obraz haqida Izzat Sulton shunday deydi: “Obraz insonning tipiklashtirilgan va induviduallashtirilgan tasviridir”<sup>18</sup>.

Erkin Samandarning “Daryosini yo’qotgan qirg’oq” romani o’ziga xos obrazlar ifodasiga ega. Undagi odam obrazi tabiat yoki jonivorlar obrazi bilan parallel tasvirlanadi. Oxir-oqibat tabiiy ravishda bu ikki tip obraz muqoyasasi paydo bo’ladi. Parallellikning roman boshidan oxirigacha bir xil ushlab turilishi tabiat va inson muammosini badiiy uyg’unlikda ifodalash, tasvir etishga olib keladi.

